



UMUMTA'LIM MAKTAB DIREKTORLARINING LIDERLIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Rajabov Kozim Komil o'g'li

A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur tezisda umumta'lism maktab direktorlarining liderlik kompetentligini rivojlantirishning dolzarbliji, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish mexanizmlari yoritilgan. Rahbar shaxsining strategik qarorlar qabul qilish, jamoani ruhlantirish va innovatsion boshqaruvni amalga oshirishdagi roli alohida tahlil qilingan. Shuningdek, xalqaro tajriba va milliy strategiyalar asosida samarali mexanizmlar taklif etilgan.

Kalit so'zlar: *Liderlik, kompetentlik, maktab direktori, ta'lism sifati, boshqaruv*

Hozirgi davrda ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – umumta'lism maktablari samaradorligini oshirishdir. Bu jarayon bevosita rahbar shaxsining liderlik qobiliyatiga bog'liq. Direktor faqatgina ma'muriy boshqaruvchi emas, balki ta'lim muassasasining asosiy strategik yetakchisidir.

Bugungi kunda maktab direktorlarining ko'plab muammolari kuzatilmogda. Jumladan, zamonaviy menejment texnologiyalaridan yetarlicha foydalanmaslik, kommunikativ ko'nikmalarning sustligi va innovatsion yondashuvlarga ehtiyyotkorona qarash kabi kamchiliklar mavjud. Shu sababli, ularning liderlik kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb masalaga aylangan.

Liderlik kompetentligi bir necha yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:



Strategik tafakkur – uzoq muddatli maqsadlarni belgilash, ta’limni xalqaro standartlarga moslashtirish;

Jamoani ruhlantirish – pedagoglar, o‘quvchilar va ota-onalarni yagona maqsad atrofida birlashtirish;

Innovatsion boshqaruvi – zamonaviy pedagogik va texnologik yondashuvlarni joriy etish;

Kommunikativ kompetentlik – manfaatdor tomonlar bilan samarali hamkorlik o‘rnatish.

Mazkur kompetensiyalarni rivojlantirish uchun bir necha mexanizmlarni takomillashtirish talab qilinadi:

1. Direktorlar uchun muntazam malaka oshirish kurslari va xalqaro treninglar tashkil etish;
2. Liderlik kompetentligini baholashning aniq mezonlarini ishlab chiqish;
3. Innovatsion loyihalarni amalga oshirishda maktab rahbarlarini rag‘batlantirish;
4. Amaliy tajribaga asoslangan liderlik maktablarini yaratish.

Xalqaro tajribadan ko‘rish mumkinki, Finlyandiya va Singapur kabi davlatlarda maktab rahbarlari pedagogika bilan bir qatorda menejment va psixologiya bo‘yicha ham tayyorgarlikdan o‘tadi. Shu asosda ular samarali jamoa qurishga va ta’lim sifatini yuksaltirishga erishmoqda. O‘zbekiston ta’lim tizimida ham shunday kompleks yondashuvlarni joriy etish dolzarbdir.

Xulosa

Umumta’lim maktab direktorlarining liderlik kompetentligini rivojlantirish ta’lim tizimida ustuvor vazifa hisoblanadi. Rahbarning strategik tafakkuri,



tashabbuskorligi, jamoani ruhlantirish salohiyati va innovatsion qarashlari kuchli bo‘lsa, ta’lim sifati sezilarli darajada yuksaladi. Shu bois, liderlik kompetentligini shakllantirishga qaratilgan mexanizmlarni takomillashtirish nafaqat maktab darajasida, balki butun jamiyat rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish konsepsiysi” PQ-4884-son qarori. – Toshkent, 2021.
3. Fullan M. The Principal: Three Keys to Maximizing Impact. – San Francisco: Jossey-Bass, 2014.
4. Bush T. Leadership and Management Development in Education. – London: SAGE Publications, 2008.
5. OECD. School Leadership for Learning. – Paris: OECD Publishing, 2016.
6. Yukl G. Leadership in Organizations. – New York: Pearson, 2013.